

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 149 (1748), 2026-yil 24-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Yangi O‘zbekiston ruhi



Buyuk o‘zbek yo‘li



ISHONCHLI QO‘LDADIR VATAN TAQDIRI!

Bugun dunyo geosiyosiy xaritasida sodir bo‘layotgan shiddatli o‘zgarishlar, mintaqaviy mojarolar va g‘irid tahdidlar har bir davlatdan nafaqat kuchli iqtisodiyot, balki zamonaviy va jangovar armiyaga ega bo‘lishni talab etmoqda. Shu ma’noda, olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli Qurolli Kuchlar mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minlashning chinakam kafolatiga aylanib borayotgani quvonarli, albatta. Bu misli ko‘rilmagan islohot xavfsizlik poydevori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi islohi bilan boshlandiki, avvalgi noaniq va mubham bandlar o‘rniga harbiy sohada milliy daxlsizlikni ta’minlashga doir prinsiplar va yondashuvlar aniq belgilab qo‘yildi.

Men ko‘plab Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan majlislarida ishtirok etganman va har gal Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu borada har qanday kamchilik va nuqsonlarga qat’iy murosasizligini ko‘rganman, ona tuproqqa mehri sust kimsalarga bu tizimda mutlaqo o‘rin yo‘qligini qayta-qayta ta’kidlaganini eshitganman. Chegaralarimiz daxlsizligi va yurt osoyishtaligi Oliy Bosh Qo‘mondonning bosh maqsadi bo‘lib, Yetakchimiz nafaqat O‘zbekistonning, balki mintaq va dunyoning

tinchliligi uchun tolmaz kurashchi SHAXS ekaniga ko‘p bor guvoh bo‘lganman.

O‘n yil avval kimgir bugungi islohot mevalaridan nishona haqida so‘z ochsa, uning aqli rasolig shubha uyg‘otishi aniq edi. Qurolli Kuchlar darvozasiga yetti qat qulf urilgani bois, o‘sha paytlari ichkarida kechayotgan tanazzul ko‘pchilikka sezilmagan bo‘lishi mumkin. Lekin ozmi-ko‘pmi jarayon ichida yurgan guvoh sifatida ochig‘ini aytсам, har tomonlama yopiq, totalitar siyosat oqibatida armiyamiz ham moddiy, ham ma’naviy

jihatdan inqiroz yoqasiga kelgan, xalq tilida ta’riflansa, xonavayron, ramaqjon ahvolda edi. Boz ustiga do‘stni yovga aylantirish, yo‘q joydan sun’iy dushman orttirish “tajriba”si tufayli yon qo‘shnilar ham begona tutib, tinchligimizga xavfni oshirib olgandik (agar qo‘shnilar bilan do‘stona munosabat bo‘lganda, 2000-yillari har xil buzg‘unchi kuchlar yuzlab kilometr yo‘l bosib, chegaramizdan o‘tarmidi?).

Davomi 2-betda

Biz bugun g‘oyalar maydonida yashayapmiz. Butun dunyo tahliliga to‘lib bormoqda. Insoniyatni qo‘rquv iskanjasi qurshab olgan. Ertaga, indinga nima bo‘lishini, hayotimiz qay tomonga o‘zgarishini tasavvur qilish mushkul. Ammo O‘zbekiston xalqi taqdirida bir qutlug‘ tole bor. Bu – tinchlik, farovonlik, osoyishta kunlar nafasi va shukronalik tuyg‘usi bilan bog‘liq. Shular haqda o‘ylar ekanmiz, da’atan xayolimizda yorug‘ fikrlar tizila boshlaydi.

Bir e’tirof quvvati

Yaqinda, iyul oyi boshida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat tashrif bilan Gruziyada — Tbilisi shahrida bo‘ldi.

Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze: “Dunyoda rahbarlar tanqisligi seziladi, ammo O‘zbekistonda buyuk bir yetakchi bor. U O‘zbekistonni rivojlantirishga to‘liq o‘zini bag‘ishlagan chinakam rahbar. Uning ulkan yutuqlari o‘zining shaxsiy yetakchiligi samarasi”, dedi.

Bu e’tirof quvvati bizni yanada fidoyi bo‘lishga undaydi. Negaki, bugungi tahlilali

sharoitda, xalqimiz go‘zal hayotni orzu qilib turgan bir davrda biz hech qachon xotirjamlik va beparvolikka berilmasligimiz kerak, yanada ko‘proq harakat qilishimiz, qiyinchiliklardan qo‘rqmasdan faqat oldinga intilishimiz zarur.

Yangi O‘zbekiston orzusini amalga oshirish uchun biz, albatta, Yangi O‘zbekiston yo‘lidan borishimiz kerak. Bu nima degani?

G‘oya hamisha bir kishi tomonidan ilgari suriladi. Uni qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash, bir butun xalq bo‘lib ana shu g‘oyani amalga oshirish esa har doim jamoaviy birlashishni, milliy birdamlikni talab qilgan.

Yangi O‘zbekiston orzusi bilan yashayotgan xalqimiz bugun mana shu yagona g‘oya atrofida birlasha oldi. **BU ORZU — KO‘P MILLATLI XALQIMIZNING BUYUK MAQOMINI TIKLASH MAQSADI.**

Orzularimizning yuksalayotgani haqida hali ko‘p to‘xtalamiz. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq tumani va Nurafshon shahriga tashrif buyurib, hududda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishgani haqida ikki-uch og‘iz gaplashsak.

Davomi 3-betda

Surur

YO‘LBOSHCHI

Markaziy bu Osiyoning alplarini bedor etib,
Qancha xalq el-ulusning qalblarini bedor etib.
Qondosh, jondosh elatlarning nizosini to‘xtatolgan,
Ko‘ngillarga mehru shafqat ham umid uyg‘otolgan.
Bag‘ri kengu mehr to‘la uylari ham ayvoni,
Zamon bo‘ldi, ey yoronlar, o‘zbeklarning zamoni*.

Beshikdagi bolanggacha tolei belgilangan,
Uylaring ham fikru onging butunlay yangilangan.
Qizlaringning yonoqlari naqsh olmaday qirmiziy,
Har bolang bir Buxoriydir, har o‘g‘ling bir Termiziy.
Senga bo‘lsin bobolarning ilmu hikmat, irfoni,
Zamon bo‘ldi, ey yoronlar, o‘zbeklarning zamoni.

Opamdiansan, singlimdiansan, yorimdiansan, qizimsan,
Sen To‘maris momolardan mening qolar izimsan.
Elu yurtda ravnaq bo‘lsin, turmush bo‘lsin farovon,
Yurt egasi omon bo‘lsin, duo aylang, onajon.
Duo tole kalitidir — elning balogardoni,
Zamon bo‘ldi, ey yoronlar, o‘zbeklarning zamoni.

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

*Ustozga tazmin



YANGI O‘ZBEKISTONDAGI ULUG‘VOR UYG‘ONISH NASIMLARI TARANNUMI

Nuqtayi nazar



Yaqinda taniqli o‘zbek siyosatshunosi va publitsisti, davlat va jamoat arbobi Quqratilla Rafiqovning “Millat Shavkati” kitobi nashrdan chiqdi va uning ilk taqdimoti Jizzax viloyatining Zomin tumanida bo‘lib o‘tdi. Ushbu ma’naviy-ma’rifiy tadbir xuddi uni o‘tkazishga asos bo‘lgan salmoqli kitobning o‘zi singari mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida muhim voqeadir.

Yanada e’tiborlisi, ayni muhtasham asar O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga mo‘jaz va munosib sovg‘a bo‘ldi. Zero, bugungi kunda yangi O‘zbekistonda milliy davlatlilik taraqqiyotini faqat iqtisodiy yoki siyosiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki millat tafakkuri va dunyoqarashi, ijtimoiy ongi va ma’naviy yuksalishi darajalari bilan ham baholash tendensiyasi tobora ko‘zga tashlanmoqda.

Davomi 5-betda

YORUG‘ KUNLAR QADRI

Yaratganga beaddad shukr, saksonning ostonasidan hatladim. Bu bosh yaxshi kunlarni ham, qiyinchilik va tashvishli damlarni ham ko‘rdi. Bekobod tumani kengliklarida umrim o‘tyapti. Hayotimni pedagogikaga, ma’naviyatga bag‘ishlagan insonman. Maqtanish emas-u, ammo yuzlab shogirdlarim, o‘nlab kasbdoshlarim, katta-kichik rahbarlar meni haqiqiy ma’naviyat targ‘ibotchisi, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi ziyoli sifatida hurmat-izzat qiladi. O‘ylaymanki, yoshlarga nimadir aytish, ularga to‘g‘ri maslahat berishga ma’naviy haqqim bor.

Davomi 6-betda

TAXTAKO‘PIRning BUGUNI VA KELAJAGI



4



Endilikda armiya yoshlar uchun yo‘qotilgan bir yil emas, balki shaxs bo‘lib shakllanish mavsumiga aylanmoqda. Harbiy qismlarda 3-6 oylik kasbga tayyorlash kurslarining joriy etilishi askarning uyga sertifikatlangan mutaxassis bo‘lib qaytishini ta‘minlaydi.

Yangi O‘zbekiston ruhi



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



ISHONCHLI QO‘LDADIR



Iqbol MIRZO, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi

Бошланиши 1-бегда

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini nafaqat mustahkamladi, balki uni mintaqadagi eng zamonaviy va jangovar armiyaga aylantirdi.
Jahon tajribasi va tahlillardan kelib chiqib, ichki va tashqi xatarlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha yangi jangovar bo‘linmalar tuzildi, qo‘shinlar tarkibi optimallashtirildi. Zamonaviy urushlar “texnologiyalar jangi” ekanini inobatga olib, O‘zbekiston armiyasida uchuvchisiz uchish apparatlari bo‘linmalarining tashkil etilishi strategik qadam bo‘ldi. Bu nafaqat razvedka imkoniyatlarini kengaytiradi, balki nishonlarga yuqori aniqlikda zarba berish qobiliyatini ham oshiradi. Armiyani raqamlashtirish jarayoni esa boshqaruv tizimining tezkorligini ta‘minlamoqda. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari keyingi yillarda texnik, ma‘naviy va falsafiy jihatdan ham tubdan yangilandi.

Mamlakatning mudofaa qudrati zamonaviy qurol-yarog‘, temir intizom hamda xalq va armiya o‘rtasidagi mustahkam ishonch va ruhiy birdamlik bilan o‘lchanadi. Bugun O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida kechayotgan o‘zgarishlarni kuzatar ekanman, qo‘yilgan tamal toshlari va bosib o‘tilgan mashaqqatli yo‘l ko‘z oldimdan o‘tadi.

2012-yili Mudofaa vazirligi huzurida yangi institut — Jamoatchilik kengashi tuzildi. O‘sha paytda bizda na tajriba bor edi, na aniq bir dastur. Ofitserlar uyida o‘tgan Kengashning dastlabki ta‘sis yig‘ilishi xotiramda muhrlanib qolgan. O‘sha yig‘inda Shavkat Miromjonovich Bosh vazir sifatida ishtirok etgan edi. U kishi bizga, hali bu sohada hech narsani tushunmagan ziyolilar, olimlar va ijodkorlarga kengashning asl mohiyatini oddiy va lo‘nda qilib tushuntirib bergandi: “Bu kengash shunchaki rasmiyatchilik uchun emas, xalq bilan armiya o‘rtasidagi jonli, mustahkam ko‘prik bo‘lishi kerak!”.

Ushbu g‘oya faoliyatimizning bosh falsafasiga aylandi. Ammo ko‘prik haqida gap ketganda bir narsani hech qachon unutmaslik lozim. Ko‘prikdan faqat bir tomonga o‘tilmaydi! U ikki tomonlama harakatlanuvchi tizim bo‘lishi kerak. Armiya xalqqa imkon qadar ochiq bo‘lishi, xalq esa armiyani o‘z jigaridek qabul qilishi lozim. Zero, kazarmalarda xizmat qilayotgan qorako‘zlar osmondan tushgan emas, ular o‘zimizning farzandlarimiz, jigarbandlarimiz, mahalladoshlarimizdir. Ota-ona uyida o‘tirib, “bolam tinch, qorni to‘q, Vatanga sharaf bilan xizmat qilaypti” deb ko‘ngli xotirjam bo‘lishi — tinchligimizning bosh omili hisoblanadi, afsuski, o‘sha yillardagi sharoit bizga keng quloch yozib ishlashga imkon bermadi. Dastlabki besh-olti yil davomida Jamoatchilik kengashi de-fakto marionet tizimida ishladi. Ishimiz ko‘proq “xo‘jako‘rsin”ga, hisobotlar uchun edi.

Bugungi shiddatli islohotlar, zamonaviy poligonlar va eng so‘nggi texnologiyalar bilan qurollangan Milliy armiyamizni ko‘rib, qalbmiz faxrga to‘ladi. Biroq bugungi yutuqlarning qadriga yetish uchun yaqin o‘tmishning achchiq, gohida esa ko‘z yoshsiz o‘qib bo‘lmaydigan sahifalarini eslashga majburiy. Jamoatchilik kengashidagi ko‘p yillik faoliyatim davomida armiyamizning eng og‘ir va e‘tibordan chetda qolgan davrlarga guvoh bo‘lganman. Bugun o‘sha xatolardan xulosa chiqarish, islohot samarasining qadriga yetish uchun ham ochiq gapirish mavridi yetildi.

O‘sha paytlarda xalqaro reytinglarda O‘zbekiston armiyasi “Markaziy Osiyodagi eng kuchli armiya” deb ko‘rsatilardi. Ammo bu shunchaki sarob edi. Bu reytinglar sobiq ittifoqdan, Turkiston harbiy okrugidan qolgan eski qurol-yarog‘lar, tanklar va texnikalarning soniga qarab tuzilardi. Aslida esa voqeilik teskari edi. O‘sha maqталar texnikalarning aksariyati zanglab, yaroqsiz holga kelgan, ularni ta‘mirlash uchun na mablag‘, na mutaxassis topilardi. Davlat armiyadan pul tejash siyosatini yuritir, munosabat shunday nuqtaga yetgan ediki, Qurolli Kuchlar mamlakat xavfsizligi kafolati emas, balki g‘aznaga ortiqcha og‘izdek ko‘rilardi.

Eng achinarlisi, harbiy xizmatning nufuzi va muqaddas mohiyati yo‘qolgandi. Yoshlar armiyaga Vatanni himoya qilish, erkaklik maktabini o‘tash uchun emas, balki faqatgina bitta imtiyoz — o‘qishga kirishda beriladigan tavsiyanoma uchun boradigan yillar edi. Armiya — qutlug‘ qasamyod maskanidan OTMga kirish uchun beriladigan “yo‘llanma bekat”ga aylanib qolgandi. Bu harbiyatda ruhiy va ma‘naviy inqirozning eng yuqori cho‘qqisiga aylandi.

Mening xotiramdagi eng og‘riqli manzara bu — paxta dalalaridagi askarlardir. O‘sha paytda armiyamizning asosiy poligoni Sirdaryo va Jizzaxning paxta dalalari bo‘lgan. Ularning holidan xabar olgani borganimizda, manzaralar yurak-bag‘ini ezardi. Tasavvur qiling, kechki soat 22:00. Hammayoq zim-ziyo. Biz yotoqqa aylantirilgan maktabning stadionida ona yurt himoyachisi bo‘lgan askarlarning qaytishini kutib turibmiz. Uzoqdan peshonasiga fonar o‘rnatib olgan, ammo chehralari nursiz, xuddi asirlardek oyog‘ini sudrab kelayotgan sharpalar ko‘rinardi. Bular — bizning “mardi maydon” jangchilarimiz edi. Kiyimlari shalviragan, loy va changga botgan, ruhlari siniq, ko‘zlari mudroq, tinkasi qurigan bu sho‘rliklarning qulog‘iga balandparvoz she‘rimizu soxta ko‘tarinki lapalarimiz kirarmidi?!

Bugun biz nega armiyadagi olamshumul o‘zgarishlar haqida baland ovozda gapiryapmiz? Chunki biz o‘sha “paxtakor armiya” bosqichidan o‘tganmiz, inson qadri g‘o‘zapo‘choqdek xor bo‘lgan davrni ko‘rganmiz, armiyaning jilovini “badqovoq nozir”lar tortganiga guvohmiz.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan armiyani paxtadan, qurilishdan va boshqa begona ishlardan butunlay xalos qilingani bu — shunchaki islohot emas, bu millat sha‘nini yuksaltirishdek jasorat namunasidir. Bugun bu davrga uzil-kesil nuqta qo‘yildi, askarlar ikkinchi darajali ishlariga jalb qilinishi to‘xtatildi. Bugungi kunda armiyamiz to‘laqonli jangovar shayk va tayyorgarlik bilan mashg‘ul bo‘lmoqda. Armiya professional asosga o‘tdi. Bu bilan biz o‘sha qora kunlarni unutmasligimiz kerak, toki ular hech qachon qaytmisan degim keldi.

Prezidentlik lavozimiga kirishgan yangi Oliy Bosh Qo‘mondonning armiyani milliy lashtirish, o‘zbek tilida gapiradigan va tafakkur qiladigan harbiy mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan



e‘tibori, mamlakatning harbiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Islohotlar doirasida harbiy maktablar yangilandi. Ilgari “Suvorovskaya shkola” deb mashhur bo‘lgan va keyinchalik ham negadir ana shu ajnabiy nasab bilan atalavergan maktablarning ahvoli bolalar koloniyasiga o‘xshar edi. Talabalik paytim Farg‘onaning Frunze massividan teparog‘ga joylashgan bu nomi baland dargohning devori tikanli sim bilan o‘ralgan bo‘lib, ichkaridan ko‘pincha dag‘dag‘a, qichqiriq va so‘kinch eshitilar, gohi eshik tirqishidan momataloq yuzlar ko‘rinib, non so‘ragan yulvorishlar quloqqa chalinar. Odatda bunday “tarbiya” maskanlariga mahalliy xalqdan ko‘ra, ko‘proq boshqalar tarbiyasi og‘irroq yoki boquvchisini yo‘qotgan bolalarni topshirdi. Xullasi kalom, bu joyni bolalar jazo lageri deb atalsa to‘g‘ri bo‘lardi. Endi-chi? Avvalo, bu turqi sovuq maskanlar batamom tugatilib, yangi “Temurbeklar maktabi”ga asos solindi va shu muborak nomga munosib shart-sharoit yaratildi.

2023-yilda Urganch shahrida yangi zamonaviy talabarga javob beradigan o‘quv sinflari va laboratoriyalar, yotoqxona va barcha infrastrukturaga ega “Jaloliddin Manguberdi” harbiy-akademik litseyi tashkil etildi. Bugungi kunda bu va boshqa kuch ishlatar tizimlarning turdosh maktablarida ta‘lim olayotgan bolalarning yashash va o‘qish sharoiti tubdan yaxshilandi, ularning sog‘lom va barkamol rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar muhayyo.

Islohotning samarasi izchillikdadir. Prezidentning uzoqni ko‘zlagan siyosatiga ko‘ra, harbiy oliy o‘quv yurtlarining ham ichki, ham tashqi qiyofasi batamom yangilandi.

Barcha harbiy ta‘lim muassasalari institut



VATAN TAQDIRI!

maqomida markazlashgan tizimga o‘tkazilib, yagona O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Bugungi askar va ofitser faqatgina qurolni ishlata olishi kifoya emas, u vaziyatni tahlil qila oladigan, tezkor qaror qabul qiladigan va yuqori texnologiyalarni boshqara oladigan intellektual shaxs bo‘lishi lozim. Sun‘iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlarining joriy etilishi kadrlar tayyorlash jarayonini individuallashtirish va baholashda xolislikni ta‘minlash imkonini bermog‘da. Bu kelajakdagi “aqli urushlar”dan saqlanishga bugundan tayyorgarlik ko‘rish demakdir.

Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Harbiy tibbiyot akademiyasi tashkil qilinib, unutilayotgan Toshkent gospitali shifokorlarining shuhrati qayta tiklandi.

tashabbusi bilan kitobxon armiyaga aylangan soha nafaqat chegarani, balki milliy qadriyat va tilimizni ham himoya qiluvchi ma‘naviy qo‘rg‘onga aylandi.

Joriy yilda barcha harbiy qism va muassasalar jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlanadigan bo‘ldi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiyga yo‘naltirilgan maktab-litsey o‘quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o‘rtasida Oliy Bosh Qo‘mondon sovrini uchun kitobxonlik tanlovi yo‘lga qo‘yildi. Okrug, qo‘mondonlik, vazirlik, Oliy Bosh Qo‘mondon tanlovlari da g‘olib va sovrindor bo‘lgan askarlarning muddatli harbiy xizmati bir oyga qisqartirib beriladi. G‘oliblarga bosh sovrin — yengil avtomobil sovg‘a qilinishi kitobxonlik orqali davlat tiliga, adabiyot va ma‘naviyatga yuksak ehtirom namunasidir. Qarang, bugun xizmatga kelgan yig‘it kasb-hunar egallashi, til o‘rganishi, kitob o‘qib, ma‘naviy dunyosini boyitishi va buning evaziga avtomobil minib qaytishi mumkin! Bunday rag‘bat dunyo tajribasida yo‘q. Millat Yetakchisi kitobni ma‘naviyat va ma‘rifat, milliy qadriyat, ezu an‘analar, buyuk tarix, ta‘lim-tarbiya hamda chin vatanparvarlikning asosi deb hisoblaydi.

O‘zbekiston armiyasiga chaqirilgan yigitlar nafaqat jismonan, balki ma‘naviy jihatdan ham barkamol, norg‘ul, yelkalari va dunyoqarashi keng, hatto ular kutib olgan ofitserlardan ham ko‘ra basavlat ko‘rinadi. Bu yigitlar harbiy xizmatga faqat imtiyozlar yoki majburiyatlar uchun emas, balki Vataniini himoya qilish maqsadida kelgani aniq. Ular uchun harbiy xizmat — faqat vazifa emas, yig‘itlik burchi va shon-sharaf masalasi. Suhbatlashganda, “Men harbiy xizmatda qolaman”, “Vatanimni himoya qilaman” degan niyatlarini eshitasiz.

Bugungi armiyamizning yangi konsepsiyasi milliy qadriyatlarga asoslanadi. Ilgari armiya jamiyatdan ajralgan, yopiq tizim edi dedik. Hozir harbiy shaharchalardagi ochiq eshiklar kunlari, harbiy-vatanparvarlik festivallari, yoshlar uchun “Amir Temur vorislari” kabi ko‘riklar xalq va armiya o‘rtasida mustahkam ishonch ko‘prigini qurdi. Bir paytlar jigarbandlarini harbiy xizmatga yig‘i-sig‘i bilan kuzatgan ota-onalar bugun farzandlarini yig‘itlik burchini o‘tash uchun dorilfununga o‘qishga kuzayotganday shodiyoyna bilan yo‘llamoqda. Darhaqiqat, armiyamiz bugun jasorat, ma‘naviyat va vatanparvarlik maktabiga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shaxsan poligonlarga borishi, askarlar bilan birga ovqatlanishi, do‘stona subhati — Oliy Bosh Qo‘mondon va oddiy askar o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni yaratdi. Ana shunday samimiy munosabat xalq va armiya o‘rtasida ham shakllandi. Millatning, Vatanning xizmatiga shay bo‘lgan armiya o‘z faoliyatini ona xalqi manfaatlari yo‘liga safarbar qilgan.

O‘n yil avval harbiylar uy olishi ushalmas orzu sifatida qabul qilinardi. Bir umr ko‘chmanchilardек behalovat ijaralarda yashab o‘tgan ofitserlarni tanisiz. Sargardon sharoitda oila va farzand xolini tasavvur qiling, ularning tashvishini chekkan nochor otaning ahvolini ko‘z oldingizga keltiring. “Oila tinch bo‘lsa, ko‘ngil xotirjam bo‘ladi. Ana shundagina Vatan himoyasi haqida gapirish mumkin”, deb ta‘kidlagani Oliy Bosh Qo‘mondon. Bugungi kunda harbiylar uy berish an‘anaga aylandi. Bu borada 2025-yilda 300 xonadonli xizmat uylari hamda ipoteka krediti asosida 40 ta

ko‘p qavatli uylar qurilib, 1200 nafar harbiy xizmatchilar uy-joy bilan ta‘minlandi.

Harbiylarni 373 nafar nogironligi bor farzandlari hamda 28 nafar halok bo‘lgan harbiylarning oila a‘zolari gospitallarda davolandi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun turli yo‘nalishdagi 2580 ta o‘quv kurslari va to‘garaklar tashkil etilib, 918 nafariga oliy ta‘lim muassasalariga kirish uchun tavsiyanomalar berildi. O‘tgan yoz mavsumida 7391 nafar farzandlarimiz Vazirlik tasarrufidagi bolalar oromgohlarida dam olishlari ta‘minlandi.

Bir vaqtlar ota-onalar “Qizimni harbiyga bermayman, umri jomadon sudrab, ko‘chama-ko‘cha o‘tadimi?” deb oyoq tirab olardi. Harbiy oilalar respublikaning turli hududlariga ko‘char ekan, yosh onalarning tibbiyot va ta‘lim masalasida sochi oqarib ketardi. Armiyada tibbiy xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy himoya darajasini past bo‘lgani uchun navqiron askarlar turli kasalliklar oqibatida oilaviy turmushini yo‘lga qo‘yishga qiynalardi. Bugun esa harbiyning rafiqasi bo‘lish chinakam sharafiga aylandi. Bugun nafaqat serjant va ofitserlar, balki ularning oilasi ham davlat himoyasida. Askarlar Vatan shahadlarini himoya qilar ekan, davlat ularning Vatan ichidagi vatani bo‘lmish oilasini himoya qilmoqda.

Barcha sohalarda jadidlar merosiga murojaat qilayapmiz. Mudofaa ham bundan mustasno emas. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdurau Fitrat va Cho‘lpon kabi jadid bobolarimiz millatning ozodligini faqat ma‘rifatda emas, balki zamonaviy qo‘shinda ham ko‘rgan. Turkiston Muxtoriyatiga yo‘llagan maktubida “Agar biz hurriyat rivojini istasak, undan bahra topmoqchi bo‘lsak, lozimki, o‘zimizdan tadjriiy suratda askarlarimiz bo‘lsun. Ul milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarz maishatini o‘zimiz tayin qilurimiz”, deb yozadi Behbudiy hazratlari.

Bugungi armiyamiz — aynan o‘sha jadidlar orzu qilgan, dunyo ilm-fanini egallagan, vatanparvar va intellektual qo‘shindir. Biz bobolarimizning ma‘naviy merosini, ularning kuchli davlat haqidagi strategik qarashlarini ham hayotga tatbiq etmoqdamiz.

Zamonaviy urushlarda son bilan emas, balki aql bilan g‘alaba qozonilmoqda. Armiya va sun‘iy intellekt — bugungi kunning ajralmas qismi. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimiga raqamli texnologiyalar, dronlar, sun‘iy intellekt yordamida boshqariladigan razvedka va aloqa tizimlari shiddat bilan kirib kelmog‘da. Kibermakon — yangi front va bizning harbiylarimiz bu maydonda ham yuqori texnologik tayyorgarlikka ega. Shulardan kelib chiqib, o‘tgan davrda armiyani raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishtar amalga oshirildi.

Qo‘shinlarni boshqarishda tezkorlik va muvofiqlashtirish masalalari qayta ko‘rib chiqildi, barcha darajadagi boshqaruv organlari faoliyati takomillashtirildi. Ularning faoliyatiga eng ilg‘or axborot-kommunikatsiya tizimlariga asoslangan, ishonchli himoyaga ega, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari joriy etilib, qo‘shinlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi bosqichma-bosqich yaratilmoqda. Axborot almashinuvi xavfsizligini ta‘minlash maqsadida milliy kriptografiya himoya vositalari o‘rnatildi.

Muhtaram Prezidentimizning 2026-yildagi tegishli qarorlari asosida Raqamli texnologiyalar bosh boshqarmasi, Sun‘iy intellekt texnologiyalari departamenti va Kibervavfsizlik laboratoriyasi kabi yangi bo‘linmalar tashkil etildi.

Har qanday zamonaviy qurol, agar uni boshqarayotgan insonning ruhiyati mustahkam bo‘lmasa, samara bermaydi. Milliy armiyamizda ma‘naviy-ruhiy tayyorgarlikka berilayotgan e‘tibor vatanparvarlik hissini faqat shiorlarda emas, balki har bir harbiy xizmatchining ongida shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Prezidenti — tinchlikevar siyosat tarafdori. Biz hech kimga tahdid qilmaymiz, hech kimning yeriga ko‘z tikilmaydi. Ammo Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Tinchlikni saqlash uchun har soniyada urushga tayyor turish kerak”. Aynan mana shu siyosat natijasida O‘zbekiston armiyasi xalqaro reytinglarda (Global Firepower) Markaziy Osiyoda birinchi va dunyoning eng kuchli armiyalari qatoridan munosib o‘rin oldi. Xalqaro armiya o‘yinlaridagi (ArMI) muvaffaqiyatlarimiz dunyo harbiy ekspertlarini lol qoldirmog‘da. O‘zbekiston Milliy Armiyasi bugun mintaqaviy barqarorlik kafolati, milliy g‘urur manbaidir.

Mudofaa sanoatining mahalliy lashtirilishi esa davlatning iqtisodiy va harbiy suverenitetini yanada mustahkamlamoqda. O‘zbekistonning mudofaa sohasidagi islohotlari “Mehnat va aql bilan hurmat qozonamiz” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, u mutlaqo mudofaa xarakteriga ega. Islohotlar samarasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston o‘z sarhadlarini har qanday tashqi tahdididan himoya qilishga qodir qudratli armiyaga ega bo‘ldi. Raqamlashtirish, intellektual salohiyat va yuqori texnologik qurollanish — bu uchlik Yangi O‘zbekiston armiyasining qiyofasini belgilab bermog‘da va mintaqaviy barqarorlikning asosiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Dunyoning geosiyosiy xaritasida keskin o‘zgarishlar yuz berayotgan, xalqaro huquq me‘yorlari zaiflashib, qurollanish poygasi yangi bosqichga chiqqan bir davrda, O‘zbekiston o‘z mudofaa strategiyasini tubdan yangilamoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning soha bo‘yicha belgilab bergan yangi vazifalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy armiya endi nafaqat jismoniy kuch, balki yuqori texnologiyalar va kuchli ijtimoiy institutlar majmuiga aylanmoqda. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, tank va samolyotlar soniga tayanish davri o‘tdi. Bugungi kunda jang maydonida sun‘iy intellekt, kibernetologiyalar va masofaviy boshqaruv tizimlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning proaktiv ish rejimiga o‘tishi bu — tahdid kelganda emas, balki u hali shakllanmasdan turib chora ko‘rish, potensial xatarlarni raqamli tahlil orqali prognoz qilish demakdir. Bu armiyaning nafaqat qurollanishini, balki uni boshqarayotgan shaxsiy tarkibining dunyoqarashini ham o‘zgartirishni talab qiladi.

Eng katta inqilobiy o‘zgarishlardan biri — muddatli harbiy xizmatning ijtimoiy mohiyatini o‘zgartirishdir. Endilikda armiya yoshlar uchun yo‘qotilgan bir yil emas, balki shaxs bo‘lib shakllanish mavsumiga aylanmoqda. Harbiy qismlarda 3-6 oylik kasbga tayyorlash kurslarining joriy etilishi askarning uyga sertifikatlangan mutaxassis bo‘lib qaytishini ta‘minlaydi. Bu mehnat bozoridagi ishsizlik muammosini hal qilishda ham muhim omildir.

Shu bilan birga, qurolli kuchlarda AT-avlodni shakllantirish masalasi davlatimiz rahbarining doimiy e‘tiborida. “Bir million dasturchi” va “Besh million SI yetakchisi” loyihalariga har yili 5 ming askarning jalb qilinishi bu — davlatning kelajakdagi raqamli iqtisodiyoti uchun kuchli zaxira yaratish demakdir. Harbiy qismning o‘zida oliyog‘ha kirish imtihonlarini topshirish va talabalikka qabul qilinishi bilan xizmatdan so‘ng darrov o‘qishni boshlash tizimi yoshlarning yulqini tejaydi va ularning ilmiy salohiyatini oshiradi.

Bundan tashqari, 2026-yil may oyidan boshlab, Prezidentimizning qarorlari bilan muddatli harbiy xizmatchilar uchun bir qator imtiyoz va kafolatlar berildi.

Askarlarimiz uchun hududiy texnikumlar bilan hamkorlikda “Bitta askar — bitta kasb” tamoyilida 3-6 oylik o‘quv kurslari tashkil etildi va kurslarni tamomlaganlarga davlat namunasidagi sertifikatlar berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Armiyadan qaytgan yoshlar uchun davlat taklif etayotgan imtiyozlar paketi (foizsiz ta‘lim kreditlari, tadbirkorlik uchun imtiyozli kreditlar, davlat xizmatiga kirishdagi qo‘shimcha ballar) ularning jamiyatga tezkorlik bilan integratsiyalashuviga va iqtisodiy faol qatlamga aylanishiga xizmat qiladi.

Armiyani yoshlar uchun haqiqiy hayot maktabiga aylantirish orqali mamlakatning inson kapitalini boyitish ko‘zda tutildi. Bu islohotlar natijasida “muddatli harbiy xizmat” tushunchasi o‘z mazmunini o‘zgartirib, nafaqat Vatanni himoya qilish majburiyati, balki yoshlar uchun porloq kelajakni qurish imkoniyatiga aylanmoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, tinchlik — eng oliy ne‘mat, uni asrash esa faqatgina kuchli va aqli bo‘lish orqali amalga oshadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosida boshlangan ishlar endi mutlaq yangi sifat bosqichga ko‘tarilib, Qurolli Kuchlarning yangi, modernizatsiyaga qilingan o‘t ochish tizimlari va texnika bilan ta‘minlash harbiy harakatlar teatri xususiyatlarini, qo‘shinlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda davom ettirildi. Umuman olganda, harbiy qurilish sohasidagi islohotlarning samaradorligini baholab, mamlakatimiz mustaqilligi va xavfsizligining kafolati — xalqimizning tinch hayotini ta‘minlashga qodir milliy Qurolli Kuchlar shakllanganligini ta‘kidlashga to‘la haqlimiz. Shoir aytgandek, “Ishonchli qo‘ldadir Vatan taqdiri!”.



O'tgan qisqa davrda mamlakatimizda YANGI O'ZBEKISTON YO'Liga asos solindi. Oldimizga juda katta marralarni qo'yib, ana shu cho'qqi sari dadil bormoqdamiz. Bu nafaqat o'zbekistonliklar, balki butun Markaziy Osiyoni birlashtirdi.

DAVR
NAFASI | 3
2026-yil 24-iyul, 149-son

Buyuk o'zbek yo'li

DUNYO KAHKASHONIDAGI BUYUKLIK QUDRATI



Salim DONIYOROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Islohotlarning hayotbaxsh siri

Toshkent katta halqa yo'lidan kelib, yaydoq dalani ikkiga bo'lib o'tgan yo'ldan ichkariladik. Saratonning chillasida kun choshgoh bo'lganiga qaramay, yoqimli shabada esadi. Kenglikni ko'rib ko'zingiz quvnaydi. Beixtiyor tanga rohat beradigan ob-havodan zavq olib, yo'l yurish istagi tug'iladi. Yo'lida hikmat ko'p. U insonni toblaydi. Yangi manzillar sari boshlaydi. Shu bilan birga, haqiqiy do'stlar ham yo'lida — uning sinovlari chog'ida topiladi. Ayni jihat sababli ham yo'l qadrlirdi.

Toshkent — Samarqand pullik muqobil avtomobil yo'lining start olgan nuqtasida turib, qalbmizni ajib tuyg'ular egalladi. Shuningdek, tarixda asrlar osha xalqlarga xizmat qiladigan yo'lga asos solgan shaxslar haqida o'yladik. Ular sanoqilgina ekan! Xalq va kelajakka munosib yirik loyihaga bosh bo'lish unchamuncha kishiga nasib etavermas ekan-da!

So'ng beixtiyor **“Temur tuzuklari”** kitobidagi quyidagi so'zlar yodga tushdi: **“Amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga yangi ko'priklar qursinlar, yo'l ustida har manzilgohga rabotlar qursinlar.**

Yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar



qo'ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlarki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo'lsin. Yo'lovchilar mollarni g'afat bosib, o'g'irlatib qo'ymasliklarining vazifasi ham o'shalarning zimmasida bo'lsin”.

Yana o'ylab qolamiz. Dunyoda yana qancha davlat rahbarlari Temur bobomiz kabi farmonlar bergan ekan-a? Aniq bilmaymiz. Lekin ulardan sanoqli shaxslargagina g'oyasini hayotiy haqiqatga aylantirish nasib etgan. Ana shunday xayollar mamlakatimizning buguni haqida mushohada yuritishga undaydi.

O'tgan qisqa davrda mamlakatimizda **YANGI O'ZBEKISTON YO'L**iga asos solindi. Oldimizga juda katta marralarni qo'yib, ana shu cho'qqi sari dadil bormoqdamiz. Bu nafaqat o'zbekistonliklar, balki butun Markaziy Osiyoni birlashtirdi.

Shu o'rinda kichik mulohaza. Yirik toshni bolg'a bilan urib ham qumday maydalash mumkin. Buni bilagida kuchi bor istalgan kishi eplay oladi. Ammo zarrani birlashtirib, bir butun qilish mashaqqatini hamma ham zimmasiga olavermaydi. Turli millat va elatdan iborat mamlakatni bir maqsad atrofida birlashtirish, yagona xalq, bir butun vatan qilib shakllantirish ham ana shunday mashaqqatli, uncha-muncha kishi uddalay olmaydigan vazifa. Bu ishni haqiqiy yetakchilargina eplay oladi. Ayni haqiqatga uch ming yillik davlatchiligimiz tarixida ko'p bora guvoh bo'ldik.

Yangi O'zbekistonda boshlangan yangilanishlar xalqimizni birlashtira olgani bilan ham katta tarixiy voqeelirdi. Uning nechog'liq mashaqqatli yumush ekanini esa mazkur ish boshini tutganlar kabi hech kim bilmaydi, his eta olmaydi. Ammo bitta inkor etib bo'lmaz haqiqatni barchamiz yaxshi anglaymiz. O'qildizdan quvvat oliv yashovchanlikni oshiradi. Islohotlarning hayotbaxshligining

siri ham shunda. Ya'ni tarixiy ildizlarimizni zamonaviy kelajak qoidalariga, uning talab va takliflariga munosib tarzda davom ettiryapmiz.

Biz bosib o'tayotgan yo'lni tahlil etgan kishi Amir Temur bobomiz tuzuklarida keltirilgan holatga juda o'xshash vaziyatni kuzatadi. Masalan, so'nggi yillarda qarovsiz yerlar obod qilindi. Xuddi Temur saltanatida bo'lgani kabi suvsiz joylarga korizlar qurildi. Quvurlar tortilib, ariqlar beton qilinib, suv olib chiqildi. Buzilgan ko'priklar tuzatilib, yangilari barpo etildi. Yo'l ustidagi har manzilgohda rabotlar bunyod etilmoqda. Buni qurilishi boshlangan pullik muqobil yo'l misolida olib ko'rsak. Mazkur yo'l bo'yida logistika markazlari, omborlar, sanoat va agrosanoat korxonalari, savdo-servis, mehmonxona va turizm obyektlari quriladi.

Tarixdan ma'lum — bunday karvonsaroylar savdo, iqtisodning qon tomiriga aylanib, xalqning farovonligiga xizmat qiladi. Ana shu to'kinlikning yana bir ildizi esa tinchlik va xotirjamlikda. Shu bois, yangi qurilayotgan yo'lida xavfsizlik masalasiga jiddiy qaralmoqda.

Bu kunlarga osonlikcha yetib kelmadik

So'zimiz avvalida Yangi O'zbekiston yo'lga asos solingani haqida aytgan edik. Mamlakatimiz taraqqiyot yo'li, bunyodkorligidagi mutlaq yangi bosqich, zamonaviy yo'l misolida keyingi yillardagi yutuqlarimizning ayrimlarini tahlil etsak.

Birinchidan, mamlakatimizda iqtisodiy quvvatlarni oshirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Tadbirkorlarga haqiqiy ma'noda imkoniyatlar paketi yaratib berildi. Ularga mamlakatning tayanch ustunlaridan biri deya qarash shakllandi. Bunga qonunlarni zamon talabiga moslash va ularga amal qilishni qat'iy belgilash orqali erishildi.

Ikkinchidan, xalqni rozi qilish yo'lidagi davlat siyosati va jamiyatni yuksaltirish harakatlari moddiy quvvatni ma'naviy qudrat bilan birlashtirdi. Hayotimizga ijtimoiy mas'uliyat degan atama kirib keldi. Nafaqat kirib keldi, balki faoliyatimizning bir qismiga aylandi.

Uchinchidan, ayni vaziyatni jiddiy, zarurat bo'lganida tanqidiy tahlil etib, yanada baland marralarni olishda izchillikka erishilmoqda. Shu orqali hozirgiday tez o'zgaruvchan murakkab geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ham taraqqiyotdan to'xtab qolmaslikka erishilyapti.



Investitsiyalar hajmi 28 milliard dollarga, eksport 14,4 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkichlar bejiz emas. Axir hozir olis qishloq va ovullardagi tadbirkorlar o'z mahsulotini to'g'ridan to'g'ri xorij bozoriga chiqarayapti.

Yutuqlarimiz haqqoniy va hayotiy bo'lgani uchun ham xalqaro darajada tan olinmoqda. Masalan, “Fitch” va “Moody's” xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren kredit reytingini bir pog'ona yaxshiladi.

Shuning o'ziyoq O'zbekistonga ishonch bildirilayotganini ko'rsatadi. Mazkur ishonchning ahamiyati shundaki, mamlakatimizga xorijlik sarmoyadorlarning qiziqishi yanada kuchayadi. Mablag' olib kelish imkoniyatimiz kengayadi.

Muhimi, yashirin iqtisodiyot uchun jazo chorasini yengillashtirildi. Hatto imtiyozli ravishda ro'yxatga olish va qonuniy faoliyat uchun yo'l-yo'riq ko'rsatilib, zarur yordamlar berilmoqda. Natijada jamiyatimizda ertangi kunga ishonch ortib, tadbirkorlarimiz vatan taraqqiyoti yo'lidagi birlashmoqda.

Ijtimoiy mas'uliyat kuchi

Yuqoridagi hayotimizga ijtimoiy mas'uliyat degan ibora kirib kelganini aytgan edik. Aslida, bu juda quvonchli holat. Uning o'zini alohida bir maqola sifatida tahlil qilish mumkin. Chunki ijtimoiy mas'uliyat jamiyatda birdamlikni, ahillikni shakllantiradigan katta kuch.

Ayni o'rinda yaqin tariximizga nazar tashlasak. Xalqimizni ichidan bo'lib, uni oson boshqarish uchun boylarni yomonlab ko'rsatish holati bo'lgan. Biz bir asrdan ko'p vaqt mobaynida boylarimizni yomon ko'rib yashadik. Yangi O'zbekiston nafari kirib kelgach, haqiqiy mulk daxlsizligini his etib, tadbirkorlarimiz ham emini-erkin ishl yuritadigan bo'ldi.

Ana shu o'zgarishlar fonida tadbirkorlarning dunyoqarashi ham o'zgardi. Ular o'z ixtiyori bilan mahallasini obod qilib, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga ko'mak beradigan shaxslarga aylandi. Ya'ni ijtimoiy mas'uliyatni ilmiy atama deb emas, hayotiy zarurat sifatida qabul qilish boshlandi. Bu holat esa jamiyatimizda bir vatan, yagona xalq bo'lib yashash ruhini uyg'otdi, kuchaytirdi.

Ta'kidlaganimizdek, taraqqiyot bir joyda to'xtab turmaydi. Ayniqsa, hozirgidek tez o'zgaruvchan davrda bu yanada dolzarblik kasb etadi. Shu ma'noda, yurtimizda barcha sohadagi ko'rsatkichlar vaqti-vaqti bilan tahlil etilib, yangi rejalar belgilab olinmoqda.

Masalan, Prezidentimiz raisligida hudud va tarmoqlarda o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakunigacha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida iqtisodiy ko'rsatkichlar tanqidiy tahlil qilindi. Bu bejiz emas. Hozirgi davr yutuqlarni mahkam ushlab, yanada baland marralarni ko'zlab harakat qilishni talab etmoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari 40 millionlik aholimiz hayotini yaxshilash uchun 9-10 foizli iqtisodiy o'sish zarurligini ta'kidladi. Buning uchun hudud va tarmoq rahbarlari mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solishi, har bir loyiha va har bir korxona bo'yicha aniq natijaga ishlash kerakligi ko'rsatib o'tildi.

Buni bejiz eslamadik. Tamal toshi qo'yilgan muqobil pullik yo'l O'zbekiston o'z taraqqiyotining butkul yangigacha bosqichiga ko'tarilganini anglatadi. Masalan, Toshkentdan Samarqandga yetib borish vaqti hozirgi 5 soatdan 2,5 soatga qisqaradi. Ayni raqam tadbirkor uchun juda muhim. U mahsulotini tez, oson va xavfsiz yo'ldan ko'zlangan manzillarga oson yetkaza olish imkoniga ega bo'ladi. Yo'llardagi logistika markazlari kabi muhim nuqtalar esa bu ishdagi samaradorlikni yanada oshiradi.

O'rni kelganda aytish zarur, bu faqat Toshkent bilan Samarqandni bog'laydigan yo'l emas. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari uchun ham muhim strategik ahamiyatga ega. Ayni damda Samarqand orqali o'tiladigan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholining ham poytaxtga yetib kelishini tezlashtiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyati ahli uchun ham ana shunday yengilliklarni beradi. Bugun biz osongina aytayotgan ravon yo'llarga yetib kelishimizda ko'p mashaqqatli damlar bo'lgan.

Bir paytlar qo'shnilar bilan munosabatimiz yomonlashdi. Bu hammaga birdek zarar edi. Yo'llar yopildi. Eksport-import masalasi murakkab vaziyatga aylandi, — deydi yo'l qurilishi sohasi mehnat faxriysi Murodulla Abdullayev. — Hurmatli Prezidentimiz faoliyat boshlagach, hammasi o'zgardi. Dastlab yaxshi qo'shnichilik an'analari tiklandi. So'ng yo'llarimiz ochildi. Shu sohani yaxshi bilgan inson sifatida ayta olamanki, bir metr yo'l qurishning o'zi bo'lmaydi. Bir paytlar arizmas joylarni ta'mirlash uchun ham idoram-idoralar saron bo'lardik. Bugun mamlakatimizda sohaga katta mablag' ajratilyapti. Davlatimiz rahbarining o'zi nazoratga olib, yo'llarni ravon qilyapti. O'zbekiston Markaziy Osiyoning xabiga aylanmoqda. Xalqimiz nega ko'zi quvonib, xursand bo'lib yuribdi! Yo'l tekis, ishi unumli bo'lgani uchun-da!

Nurafshon. 35 yillik orzu

2022-yil adog'i. Nurafshon shahrida “Yangi O'zbekiston” va “Ипаага Ботрока” gazetalari kunlarini o'tkazgan edik. O'shanda Nurafshondagi Yoshlar markaziga Toshkent yo'li ko'chasi bo'yab borayotib, hamkasblarimizdan biri yo'lining o'ng tomoniga ishora qilib, “Mana shu kenglikda yangi, “aqli” shahar quriladi”, degani yodimda.

2026-yil 22-iyul. Hash-pash deguncha oradan to'rt yil o'tibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Nurafshonga tashrif munosabati bilan yana ushbu shahar tomon yo'l oldik. Qurilishiga start berilgan yo'l haqidagi taassurotlarimiz qorishiq holda to'rt yil oldingi ko'chasi bo'yab olib borilayotgan ulkan



bunyodkorlik ishlari hisobiga bugun ko'cha qanday ko'rinishga kelganini tasavvur qilishga urinam.

Bir payt avtoulov shinalaridan kelayotgan shuvillagan ovoz boshini tinadi, harakati ravonlashadi. Tashqariga qarayman: keng va ravon ko'cha, yo'lining ikki tomoni bog'. O'ng tomonda Nurafshon so'zi tushirilgan baland stela. Demak, “nur sochuvchi”, “ziyo tarqatuvchi” shahar — Nurafshonga yetib keldik.

Ko'cha avval ko'rganimdan butkul o'zgaribdi, boya tasavvur qilganimdan ancha

go'zal, fayzli. Olti tasmali yo'l bo'yab qad rostlagan Ijtimoiy himoya majmuasi kabi qat'iy muhtasham binolar, zamonaviy ko'p qavatli uylar, ochig'i, odamning havasini keltiradigan manzara. Ayni kezda mamlakatimizda keyingi o'n yilda qurilish sohasi, shu jumladan, shaharsozlik bo'yicha katta maktab yaratilgani, asosiysi, yangi avlod quvurchilarimizning azmu shijoati bilan barpo etilayotgan yangi-yangi mavze va shaharlar yurtodoshlarimiz farovonligiga xizmat qilayotganini o'ylab, qalbmiz faxru iftixorga to'ladi.

Haydovchi keyingi chorahadan o'ngga burilishini aytadi. Ha, bu o'sha, to'rt yil oldin hamkasbim ishora qilib ko'rsatgan manzil. Hozir bu joy qanday ko'rinishda ekan degan savol xayolimdan o'tishi hamon kelgan yo'limizdan ham keng va ravon ko'chaga tushdik. Boyagi savollar o'rmini hayrat va havas egalladi. Ko'cha bo'yab Prezident maktabi, universitet, viloyat tashkilotlarining muhtasham binolari, ko'p qavatli turar joylar ko'rstilgan. “Vatanparvar bog'”, matonati o'zbek ayoli Zulfiya Zokirova xotirasiga o'rnatilgan yodgorlik majmuasi, xiyobonlar, sun'iy ko'l, amfiteatr va favvoralar, keng yashil hududlar, velosiped hamda piyodalar yo'laklari bu fayzli go'shaga yanada tarovat bag'ishlagan.

Ularini ko'rib havas qilmay, g'ururlanmay bo'ladimi? Axir to'rt yil ilgari bu yerlar biyday yaydoq joy edi. Qarang, shuncha qisqa vaqtda viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga katta yechim berilgan ekan emas. Bu juda katta mablag', mehnat va sabot talab qiladi. Ana shu jarayonda butun bihshi shahar bunyod etish — **ASL QAHRAMONLIK!**

Viloyatning butkul yangigacha qiyofaga kirgan ma'muriy markaziga havas va hayrat ila boqar ekanimiz, Samarqandgacha quriladigan yangi muqobil yo'l, uning atrofidagi infratuzilmani bunyod etishdagi shijoatning bejiz emasligiga yana bir karra amin bo'lamiz. Axir besh-olti yil oldingi holat bilan taqqoslaganda, hozirgi kunlar ertakka o'xshaydi.

Ayni o'rinda yana bir jihatga e'tibor qaratsak. Nurafshon mamlakatimizda “aqli shahar” modeli asosida barpo etilayotgan birinchi shahardir. Unda raqamli boshqaruv, intellektual transport, energiya tejamlor texnologiyalar, madaniy maskanlar va ekologik infratuzilma yagona tizimga birlashtirilmoqda.

“Yangi O'zbekiston” gazetasidagi chiqishlarimizda doim ilm-fanga alohida e'tibor beramiz. Malakali kadrlar, inson kapitali kelajak kafolatidir. Biz Uchinchi Uyg'onish davriga asos solishdagi katta marrani olganmiz. Temuriylar Renessansining asosi Sohbiqiron bobomizning adolatli va xalqparvar siyosati sabab vujudga keldi. O'sha davrda ilm-fan, kasb-hunariga ham alohida e'tibor berilgan. Natija qanday bo'lganini bugun barchamiz yaxshi bilamiz.

Yuqoridagi ta'kidlaganimizdek, ajdodlarga munosib voris sifatida Yangi O'zbekistonda

bunyod etmoqdamiz. Buni Nurafshonning “aqli shahar” maqomini olayotganida ham ko'rishimiz mumkin. Tashrif chog'ida Kelajak texnologiyalari markaziga ham tamal toshi qo'yildi. Majmua sun'iy intellekt va raqamlashtirish borasida butun mamlakatga xizmat qiladigan markaz bo'ladi. Tasavvur qilyapsizmi, yaqin-yaqinigacha e'tibordan chetda bo'lgan hudud bugun katta shaharga, mamlakatning strategik markazlaridan biriga aylandi.

Nurafshonliklar yuz-ko'zidagi mamnuniyat, faxr va iftixorning tub zamidrida ham ana shu islohotlar bor. Bunga “Yangi O'zbekiston” bog'ida mamlakatimiz rahbarining viloyat jamoatchiligi bilan tantanali uchrashuvi chog'ida yana bir bor guvoh bo'ldik. Ushbu fayzli bog'dagi muhitni, insonlar yuz-ko'zidagi quvonchni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Uni faqat his etish mumkin.

Nuroniylar, viloyat faollari, yoshlar, qo'yingki, tantanali tadbirning barcha-barcha ishtirokchilari yuzidan hayotdan rozilik, ertangi kuniga ishonch tuyg'ulari balqiydi. Ana shu shukronalik, qat'iy ishonch porlayotgan minglab nigohlarga boqib, bir haqiqatni anglaysiz: bu qarashlardagi ulug'vorlik, qat'iyat faqatgina yangi shahar bunyod etilishi bilan bog'liq emas. Bu — inson qadriini ulug'lashga yo'g'rilgan Yangi O'zbekiston islohotlarining ortga qaytmasligi, xalqimiz Lideri boshchiligida qo'lga kiritilayotgan yutuq va tarixiy natijalarimiz bardavom bo'lishiga qat'iy ishonch hosilasidir.

Mezbonlardan birini suhbatga chorladik:

— Toshkent viloyati katta salohiyat, cheksiz imkoniyatlarga ega. Respublika yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizi viloyat hissasiga to'g'ri kelishi ham buni tasdiqlaydi. Ma'muriy markaz — Nurafshon shahri ham shunga mos barpo etilayotgan ekan. Mahobatiga, “aqli” yechimlariga havas qilam.

— Nimasini aytasiz, shunday katta viloyatning ma'muriy markazi yo'q edi, — deydi mezbon. — Ilgari ko'pchilik yurtodoshimiz “propiska”dan azob chekib, bizga havas qilishini aytardi. Aslida, bundan eng ko'p Toshkent viloyati ahli qiynalgan.

Nigohimdan “qanaqasiga”, degan savolni uqadi chog'i, og'iz juftlamasindan izoh boshlaydi.

— Masalan, Samarqand yoki qashqadaryolik bir inson yaxshi niyat bilan uy olaman deb Toshkentga keldi. “Propiska”si yo'qligi uchun uy ololmasligini bilsa, aytgini, qayerga boradi? Ha, afsuski, bizda shunday bo'lgan. Hozir bu masala hammamiz uchun o'tmishda qoldi. Lekin baribir viloyatning o'z ma'muriy markazi bo'lgani yaxshi-da. Chunki bu jihat faqatgina uy bilan bog'liqmas. Toshkent viloyatining tibbiyotidan tortib, davlat idoralarigacha, barchasi har tomondan edi.

Shu payt “Yangi O'zbekiston” bog'iga mamlakatimiz yetakchisi kirib keldi, yig'ilganlarni samimiy qutladi.

— Bu yerdagi har bir korxona, har bir ko'cha va bino, maydon va xiyobon serg'ayrat, mehnatkash va fidoyi viloyat ahli bilan birgalikdagi ishlarimizning natijasidir, — dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, bugun barchamiz yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yarataypimiz. Shu o'rinda bir haqiqatni ta'kidlashni istardik. Jamiyatni birlashtirib, mamlakatni taraqqiyotga boshlashni kuchli shaxslargina uddalay oladi. Islohotchi bo'lish insondan har jihatdan yuksak salohiyat, ertangi kunni oldindan ko'rib, tezkor va to'g'ri qaror qabul qila olishdagi fazilatlar talab etadi. Ayni sabab tufayli tashqaridan qaraganda **KATTA VA BUYUK ISLOHOTCHI** sifatida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev katta marralarni osongina zabt etayotganday ko'rinaridi. Uning uyqusiz tunlari, oromsiz kunlardagi mashaqqatini esa faqat tasavvur qilish, bir o'z his etish mumkin, xolos.

Yana bir gap. Yuqoridagi bunyodkorlik, tadbirkorlik, ijtimoiy yangilanishlar falsafasi haqida so'z yuritildi. Endi esa yurtimizdagi bu kabi o'zgarishlar silsilasi xalqimizni yana bir ezuq maqsad sari chorlay boshlagani haqida aytmoqchimiz.

Bu yerda gap obodlik harakati to'g'risida. Ma'naviy merosimizda “Obodlashmoq” so'zi bor. U tobora obod bo'lib bormoq ma'nosini anglatadi. Keyingi yillarda topgan yana bir haqiqatimiz hayotimizga, turmush tarizimizga, umuman, xohish-istaklarimizga jo'r bo'layotgan obodlik ruhidir.

Bizning zaminda azal-azaldan ro'zg'orni ozoda tutish, kishi o'zi yashayotgan atrof-muhitni sarifsha saqlash, tabiat ne'matlarini asrab-avaylash, ularni qadrlash kabi tarbiya muhiti shakllanib kelgan.

Bugun mana shu tarbiya maktabi o'zining yanada go'zal qiyofasi bilan qayta yuz ochmoqda. Bu holning boisi nimada?

Gap shundaki, keyingi yillarda yurtimizda kuzatilayotgan keng miqyosli islohotlar, avvalo, mahallalarda, chekka-chekka qishloq va ovullarda bo'y ko'rsatmoqda. Buni odamlar o'z hayotida sezaypti. Aslida hayotning eng go'zal ne'matlari faqat tinchlik va farovonlik hukm surgan zamindagida o'z xislatini namoyon etadi. Shu bois, bugun mamlakatimizda hukm surayotgan barqaror taraqqiyot muhitida xalqimiz yana obodlik muhitiga qaytdi. Shuning o'zi biz orzu qilgan farovonlik jamiyatining yorug' mujdasi emasmi?

Xulosa o'rinda aytmoqchimizki, katta yo'lga tushgan ulkan karvon — Yangi O'zbekistonning murakkab geosiyosiy jarayonlardagi yutuqlari zamidrida ana shunday hayotiy haqiqatlar bor!

YANGI O‘ZBEKISTONDAGI
ULUG‘VOR UYG‘ONISH NASIMLARI TARANNUMI

Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi Milliy
markazi direktori, akademik

Boshlanishi 1-betda

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “Millat Shavkati” asari so‘nggi ikki yilda chop etilgan 12 publitsistik maqolaning shunchaki bir yig‘indisi emas, balki yangi O‘zbekistonda kechayotgan keng qamrovli, shiddatli va tizimli islohotlarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-falsafiy va ma‘naviy-madaniy mazmunini anglashga xizmat qiluvchi yaxlit hamda salmoqli tahliliy mazmundagi to‘plamidir.

Gap shundaki, biz muallifning yettinchi kitobi taqdimotida ishtirok etdik va bu asarlarning barchasi siyosiy publitsistika janriga mansub.

Siyosiy publitsistikaning xususiyatlari nimalardan iborat?

Siyosiy publitsistikaning asosiy o‘ziga xos xususiyatlari:

- uning davr bilan hamnafasligi, ya‘ni dolzarbligi;
- ommaviyligi va ta‘sirchanligi;
- zamon ruhi aks etirilishi;
- shaxsiy va tarixiy tajribaning umumlashirilishi;
- shaxsiy munosabatning ochiq bildirilishida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy publitsistika janrida ijtimoiy-siyosiy voqealar shunchaki bayon qilinmaydi, balki ularga baho beriladi. Shu yo‘l bilan siyosiy publitsistika jamoatchilik fikrini tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Siyosiy publitsistikaning quyidagi 4 ta asosiy xususiyatini muhtasir tahlil qilib ko‘ramiz.

Birinchi xususiyati — ijtimoiy-siyosiy dolzarbligi. Bu o‘rinda, avvalo, tezkorlik omiliga e‘tibor qaratish lozim. Negaki, siyosiy publitsistika orqali muallif jamiyatdagi eng muhim va yangi siyosiy jarayonlarga zudlik bilan munosabat bildiradi. Siyosiy publitsistikaning ijtimoiy ahamiyati ham muhim bo‘lib, u shaxsiy muammolarni emas, butun jamiyat yoki davlat manfaatlariga daxldor mavzularni ko‘tarib chiqadi.

Ikkinchi xususiyati — ekspressivlik va ta‘sirchanlik. Bunda, dastavval, siyosiy publitsistikaning emotsional jihatdan ta‘sirchanligi nazarda tutilmoqda. Negaki, muallif ayni janrda o‘z pozitsiyasini his-tuyg‘ular, keskin tanqid yoki kuchli mantiqiy argumentlar orqali ifodalaydi. Siyosiy publitsistikaning da‘vatkorligi ham e‘tiborga loyiq, u ommani muayyan siyosiy g‘oya atrofida birlashishga, islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga yoki nohaqlikka qarshi turishga chaqiradi.

Uchinchi xususiyati — til va uslub rang-barangligi. Xususan, siyosiy terminologiyadan unumli foydalanilgan holda matnda diplomatik, huquqiy va siyosiy atamalar faol qo‘llanadi. Ayni chog‘da badiiylilik va majoziylik ham e‘tibordan chetda qolmaydi. Siyosiy publitsistikada faol xalqchil va tushunarli qilish uchun xalq maqollari, tarixiy shaxslar hayotidagi misollar, o‘xshatish va kinoyalardan samarali foydalaniladi.

To‘rtinchi xususiyati — subyektivlik va ochiqlik. Siyosiy publitsistikada muallif pozitsiyasi yorqin ko‘rinadi. Siyosiy publitsist voqealar ortiga yashirinmaydi, aksincha, uning “men”i, siyosiy qarashlari va dunyoqarashi matnda yaqqol sezilib turadi. Bundan tashqari, tahliliy yondashuv chuqur va qamrovdor bo‘lib, voqealarning sabab va oqibatlarini tahlil qilindi hamda kelajakdagi siyosiy prognozlar ilgari suriladi.

Beshinchi xususiyati — siyosiy publitsistika zamon ruhiga hamohangligi va bashorat qilish layoqati bilan ham ajralib turadi.

Kitob Qudratilla Rafiqovning so‘nggi 6-yilda chop ettirgan 6 ta asarining mantiqiy davomidir. U muallifning 2024-2026-yillarda yirik davriy nashrlarda e‘lon qilingan hamda

keng jamoatchilik muhokamasiga sabab bo‘lgan shov-shuvli maqolasiga asoslangan.

Bu kitobda muallifning keng mushohada, chuqur tahlil va hayotiy kuzatuvlarga asoslangan publitsistik maqolalari jamlangan, ular o‘quvchini yangi O‘zbekistonning buguni va ertasi haqida mustaqil fikr yuritishga undaydi. Asarning bosh g‘oyasi shundan iboratki, mamlakat taqdiri har bir fuqaroning shaxsiy mas‘uliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muallif davlat qurilishini faqat infratuzilma yoki iqtisodiy o‘zgarishlar emas, balki inson tafakkuri va qonunlarining o‘zgarishi bilan bog‘laydi. Kitobdan 12 maqola joy olgan va dastlabki maqolalarda Toshkent shahrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari misolida tashqi qiyofa ortida jamiyat ruhiyati va milliy o‘zlikni anglash jarayoni tahlil qilinadi. Bunday yondashuv jahon siyosatshunosligidagi “Nation building”, ya‘ni “millat qurilishi” nazariyasi bilan hamohangdir.

Ilmiy-nazariy jihatdan ta‘rif beradigan bo‘lsak, “Nation building” (“millat qurilishi”) tarqoq ijtimoiy guruhlar, qabilalar yoki etnik jamiyatlarni yagona, barqaror va mustaqil siyosiy tizim (davlatga birlashtirish jarayonidir).

Bu nazariyaning asosiy maqsadlari: birinchidan, milliy o‘zlikni yaratish, shu maqsadda aholida muayyan davlatga tegishlilik tuyg‘usini shakllantirish; ikkinchidan, ijtimoiy jipslikka erishish uchun til, madaniyat va umumiy qadriyatlar orqali ichki nizolarning oldini olish;

uchinchidan, legitimlikni, ya‘ni davlat institutlari va qonunlariga nisbatan xalq ishonchini ta‘minlashdan iboratdir.

Ayni nazariyani amalga oshirish vositalariga quyidagilar kiradi:

- ta‘lim tizimi: yagona davlat tili, madaniyati va tarixni o‘rgatish;
- ramzlar: davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi va milliy bayramlarni joriy etish;
- infratuzilma: hududlarni iqtisodiy va transport jihatdan bog‘lash.

Shu nuqtayi nazardan, yangi asarning muhim jihati shundaki, muallif qamrovdor islohotlarning huquqiy yoki ma‘muriy jihatlarini shunchaki takrorlashdek oddiy bayonchilik uslubiga chalg‘ib va o‘ralashib qolmaydi. Aksincha, ayni yangilanishlarning



inson ongi, ijtimoiy munosabatlari va milliy g‘urur shakllanishiga ta‘sirini chuqur ochib beradi. Bu, o‘z navbatida, kitobni nafaqat o‘tkir siyosiy publitsistik asar, balki noyob ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-sotsiologik tadqiqot sifatida ham munosib baholash imkonini beradi.

Bugungi kunda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi markazida “Inson qadri uchun” tamoyili turganini yaxshi bilamiz va teran anglaymiz. Mazkur kitobda ham aynan inson, uning tafakkuri, fuqarolik mas‘uliyati va Vatan taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani tahsinga sazovor.

Muallif asar davomida mamlakatimizdagi qurilishlar, jamoat tashkilotlari faoliyati, mehnat munosabatlari, milliy manfaat, fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlarni bir-biri bilan bog‘liq jarayon sifatida tahlil qiladi. Bu o‘z-o‘zidan kitobning dolzarbligi va mavzular bo‘yicha yaxlitligini ta‘minlaydi.

Shu ma‘noda, kitob mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlar, inson huquqlarini ta‘minlash, ijtimoiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarning ma‘naviy asoslarini anglashga ham xizmat qiladi.

Ayniqsa, muallifning xalq va davlat o‘rtasidagi ishonchni taraqqiyotning asosiy kapitali sifatida talqin qilishi bugungi siyosatshunoslikda dolzarb bo‘lgan “ijtimoiy



kapital” nazariyasi bilan hamohang ekanini ta‘kidlash joiz.

Ushbu nazariyaning mazmun-mohiyati nimada?

Ijtimoiy kapital jamiyatdagi insonlar, guruhlar va institutlar o‘rtasidagi ishonch, umumiy qadriyatlar hamda ijtimoiy tarmoqlar (aloqlar) tizimi bo‘lib, ular hamkorlikni va jamiyat rivojini ta‘minlaydi.


Bugungi siyosatshunoslikda bu nazariya davlat boshqaruvi samaradorligi, demokratiya barqarorligi va iqtisodiy o‘rtni tushuntiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Asarda ko‘tarilgan asosiy g‘oyalar haqida fikr yuritganda, dastavval, Amir

muddat bo‘ldi. Bugun voyaga yetayotgan farzandlarimizning uchtasidan biri hoynahoy paxta nimaligini bilmasligi tayin. G‘alla ham milliy timsolimiz emas, donning ehtiyojimiz uchun zarur qismini boshqa davlatlar qatori chetdan xarid qilamiz.

bahslashishga va mustaqil xulosa chiqarishga unday olishi bilan belgilanadi. Binobarin, “Millat Shavkati” aynan shunday yetuk siyosiy-tahliliy asarlar jumlasidandir.

Ta‘bir joiz bo‘lsa, ushbu kitobda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning



Kitobda atqoli davlat arboblari, siyosatshunoslar va olimlar, shoir va adiblardan iqtiboslar keltirilgan. Muallif ulug‘ Sohibqiron Amir Temur kabi shavkatli ajdodlarimizning ibratli tuzuklari, Zangi ota singari aziz-avliyolarimizning hikmatlari, jadid bobolarimizning ezgu amallariga murojaat qilgan holda tarixdan saboq chiqarish muhimligini uqtiradi.

Ikkinchi tomondan, paxta va g‘alla tasvirlari “iftixorimiz ramzi” sifatida davlat gerbiga eski gerbdan shundoqqina ko‘chirib olingan davrda bugungi dorilamon kunlarga yetajagimiz ham ko‘pchilikning tushiga kirmagan bo‘lsa kerak. Nega deganda, o‘sha vaqtlarda 7 yoshdan 70 yoshgacha o‘zbeklarning hayoti paxta dalasida o‘tgan. Institut, texnikum va maktablar taqatq yopilgan, nafaqat o‘quvchi-talaba va o‘qituvchilar, balki barcha ishchi-xizmatchilar yig‘im-terimga yalpi safarbar qilingan. Bayramlar, konsert va to‘ylar to‘xtatib qo‘yilgan. Oynai jahon va radioning sanoqli kanallari ertadan kechgacha faqat “chevar qo‘llar” hamda “zangori po‘lat etak”lar orqali terilgan hosil miqdori haqida gapirgan...

Bugun unday emas. Bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi, ya‘ni paxta dalasidan boshqa tashvishi bo‘lmagan xalq emas. Bugun yangi O‘zbekistonning davri, yagona O‘zbekiston xalqining yangicha zamoni keldi.

boshqaruv laboratoriyasi chuqur ochib berilgan. Muallif e‘tirof etganidek, “kuchli liderlar har qanday “o‘tish davri”da asosiy e‘tiborni xalqning, millatning, jamiyatning tafakkurini o‘zgartirishga, o‘zi orzu qilgan ulkan maqsadlarga uyg‘unlashtirishga harakat qiladi, buni islohotlarining poydevori sifatida talqin etadi”.

Muallifning o‘ziga xos uslubi — tarixiy misollar, siyosiy tahlil va hayotiy kuzatuvlarni birlashtirgan holda yangi O‘zbekistonning buguni va istiqboliga oid tarixiy voqealiklarni sodda, ravon tilda bayon qilishi kitobning keng kitobxonlar ommasiga manzur bo‘lishiga xizmat qiladi.

Kitob avvalida ta‘kidlanganidek, “bu tarixni barchamiz — O‘zbekiston xalqi birga bitmoqda. Uning shonli, yorqin bo‘yoqlarga boy bo‘lishida har birimizning hissamiz bo‘lishi lozim. Millatning ulg‘ayishi uchun har birimiz daxldormiz. Buning uchun insonda buyuk tuyg‘u — vatanparvarlik bo‘lishi kerak”.

Yana bir alohida jihat: kitobda



Binobarin, hammasi shunga mos ravishda yangi bo‘lganiga ne yetsin?!

Har qanday kitobning haqiqiy qiymati u kitobxonni o‘ylashga, mushohada qilishga,

Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda Markaziy Osiyo xalqaro maydonda o‘ziga xos qiyofaga ega mintaq va alohida huquqiy subyekt maqomida namoyon

bo‘layotgani teran talqin etilgan. Muallif bu borada so‘z yuritir ekan, AQSH eksperti Jennifer Brik Murtazashvilining quyidagi fikrlarini keltirgan: “... Markaziy Osiyoni boricha ko‘rish vaqti keldi. Bu endi postsovet hududi emas. U Yevroosiyo. Men Markaziy Osiyoga postsovet prizmasi orqali qarab kelingan deb o‘ylayman, unga Yevroosiyo superkontinentining yuragi sifatida qaralmadi...”.

Kitob sahifalaridan yurtimiz kasaba uyushmalari faoliyatiga oid maqolalar ham o‘rin olgani bejiz emas. Chunki ayni vaqtda Q. Rafiqov Oliy Majlis Senati a‘zosi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi raisi hisoblanadi.

Aytmoqchimizki, muallif mohir siyosatchi sifatida faqat kitoblar yozish bilangina mashg‘ul emas. Aksincha, Prezidentimiz yuritayotgan xalqchil siyosatni davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi tarmog‘i va fuqarolik jamiyati instituti tizimlaridagi o‘zining amaliy faoliyati bilan izchil qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Xususan, Q. Rafiqovning bevosita rahbarligida O‘zbekistonning yangi kasaba uyushmalari shakllandi deyishga barcha asoslar bor. O‘tgan o‘n yillik davrda kasaba uyushmalari faoliyatiga doir huquqiy asoslar takomillashtirildi. Ayniqsa, 2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonun imzolangan hamda 11-noyabr Kasaba uyushmalari kuni deb belgilangani muhim voqea bo‘ldi.

Yurtimizda ilk bor ish haqi uchun mintaqaviy va tarmoq koeffitsiyentlari, shuningdek, iqlim va yashash sharoitlari og‘ir va noqulay hududlarda ishlash uchun xodimlarga qo‘shimcha ta‘tilning minimal davomiyligi tasdiqlandi. Kasaba uyushma inspeksiyalari qayta tiklandi. Eng muhimi, bolalar mehnati va majburiy mehnat bartaraf etildi.

Kitobda atqoli davlat arboblari, siyosatshunoslar va olimlar, shoir va adiblardan iqtiboslar keltirilgan. Muallif ulug‘ Sohibqiron Amir Temur kabi shavkatli ajdodlarimizning ibratli tuzuklari, Zangi ota singari aziz-avliyolarimizning hikmatlari, jadid bobolarimizning ezgu amallariga murojaat qilgan holda tarixdan saboq chiqarish muhimligini uqtiradi.

Ishonchim komilki, mazkur kitob nafaqat siyosatshunoslar, davlat boshqaruvi sohasi mutaxassislari va olimlar, balki talabalar, yosh tadqiqotchilar hamda mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini chuqur anglashni istagan har bir kitobxon uchun muhim manbadir.

Shu o‘rinda asarni mutolaa qilish asosida tug‘ilgan 3 ta ilmiy xulosa va 3 ta amaliy taklifimni bildirmoqchiman.

Birinchi xulosa: ushbu kitob yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma‘naviy-falsafiy asoslarini yorituvchi muhim siyosiy-publitsistik manba hisoblanadi. Muallif davlat siyosati, millat ruhiyati va fuqarolik mas‘uliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga muvaffaq bo‘lgan.

Ikkinchi xulosa: kitobda bayon etilgan ayrim fikrlarni yangi tahrirdagi Konstitutsiya, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda inson huquqlari sohasida qabul qilingan milliy strategiyalar bilan qiyosiy tahlil qilgan holda o‘rganish asarning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Uchinchi xulosa: eng asosiysi, taniqli siyosatshunos o‘z kitoblarida, bir tomondan, yangi O‘zbekistonni va ulug‘ Vatanimizning bunyodkor xalqini oshustalik bilan tarannum etsa, ikkinchi tomondan, Prezidentimizning siyosiy portretini yaratish bilan birga yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans zamonaviy loyihalari muallifi va asoschisi hisoblanuvchi davlatimiz rahbarining ma‘naviy dunyosini ham ochib beradi.

Birinchi tavsiya. Kitob Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tinglovchilari, universitetlarning huquqshunoslik va siyosatshunoslik yo‘nalishlarida tahsil oladigan talabalar uchun “davlatchilik tafakkuri”, “siyosiy publitsistika” yoki “milliy taraqqiyot g‘oyalari” fanlariga qo‘shimcha adabiyot sifatida tavsiya etilishi o‘rinlidir.

Ikkinchi tavsiya. Kitobni ingliz va rus tillariga ilmiy tahrir asosida tarjima qilish lozim. Shunda uni bevosita o‘rganish imkoniga ega bo‘ladigan xorijiy tadqiqotchilar uchun ham yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ma‘naviy va siyosiy mohiyatini anglash imkoniyati kengayadi.

Uchinchi tavsiya. Muallifning nafaqat mazkur kitobi, balki boshqa siyosiy-publitsistik asarlarini ham O‘zbekiston kasaba uyushmalariga qarashli sihatgohlarda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish lozim deb o‘ylayman.

Bu xulosa va tavsiyalar kaminaning subyektiv fikrlaridir. Zero, tarixdagi barcha buyuk ishlar yurtga, xalqqa, umumma‘noda aytganda, insoniyatga muhabbat negizida dunyoga kelgan.

